

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KREATIV-KOMMUNIKATIV  
QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH**

**РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКО-КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У УЧИТЕЛЕЙ  
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**DEVELOPMENT OF CREATIVE-COMMUNICATIVE SKILLS OF PRIMARY CLASS  
TEACHERS**

**Fayziyeva Xurshida Sunatillo qizi**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistri*

**Xaitova Yulduz Saitovna**

*Ilmiy rahbar- p.f.f.d (PhD)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ-kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, ushbu qobiliyatlarni rivojlantirish usullari, metodlari va kreativ-kommunikativ qobiliyatli o'qituvchining o'quvchilarida ham aynan shu qobiliyatlarning shakllanishi haqida fikr yuritilgan.

**Аннотация:** В данной статье говорится о важности развития творческих и коммуникативных способностей будущих учителей начальных классов. Также были рассмотрены методы и способы развития этих способностей и формирования этих способностей у учащихся педагога с творческими и коммуникативными способностями.

**Abstract:** This article talks about the importance of developing creative and communicative skills of future primary school teachers. Also, the methods and methods of developing these abilities and the formation of these abilities in the students of a teacher with creative and communicative skills were also discussed.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, kreativlik, kommunikativlik, qobiliyat.

**Ключевые слова:** образование, творчество, общение, способности.

**Keywords:** education, creativity, communication, ability.

Jahon miqyosida tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan ko'plab sohalar qatorida ta'lim sohasi ham yuksalib bormoqda. Nafaqat kun sayin, balki, soat sayin kiritilayotgan innovatsiyalar, texnologiyalar, noodatiy yondashuvlar ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan pedagoglar va

mazkur kasbni tanlamoqchi bo'lgan bo'lajak o'qituvchilardan bilimli, salohiyatli bo'lish bilan birga kreativ-kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishni ham talab etadi. Ta'limning poydevori bo'lgan boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qituvchining ana shunday qobiliyatli bo'lishi muhim sanaladi.

Kreativlik – kishining yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga qaratilgan ijodiy qobiliyati yoki biror bir jarayonda namoyon bo'ladigan o'ziga xos g'oyalari, nazariyalari majmuasi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir darsida ijodiy yondashish orqali o'quvchilarida ham kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirib borishi mumkin. Rivojlangan xorijiy davlatlarda esa mazkur ko'nikmalarni baholashning o'nlab metodlaridan foydalanilmoqda. Bulardan: Gauening "Zahiraviy model", "Slosson testi", "Vekslerov shkalasi" ("WPPSI" testi), boshlang'ich maktablar uchun mo'ljallangan Stanford testi hamda Torrens testlari (jumladan, "Tugallanmagan rasmlar testi")ni misol keltirish o'rinlidir.

Kommunikativlik – muloqot qila olishlik, o'zgalar bilan muloqotga kirishuvchanlik qobiliyatidir. Bu qobiliyat o'qituvchining o'z fikrini aniq va tushunarli tarzda jamoaga yetkazib berishida ahamiyatli hisoblansa, o'quvchilarida ham kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish: o'zgalarni tushuna olish, o'z-o'zini anglash, vaziyatni to'g'ri baholash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ-kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish usullarini quyidagi jadvalda tavsiflaymiz.

**1-jadval**

**Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ-kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish usullari**

<b>Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ-kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish usullari</b>	
<b>Kreativlik:</b>	<b>Kommunikativlik:</b>
- Metodlar	- metodlar
- o'yinlar	- badiiy asarlar
- notanish vaziyatlar	- yangi jamoa bilan ishlash

Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog bu sohaning rivojiga oz bo'lsada o'z hissasini qo'shishi darkor. Buning uchun o'z ustida ishlashi, malaka va qobiliyatlarini rivojlantirib borishi, yo'nalishiga oid so'nggi yangiliklardan doimiy xabardor bo'lishi va kezi kelganda, sohaga o'zi ham yangilik kiritishga intilmog'i lozim. Kreativ-kommunikativ qobiliyatlari ham ana shu jarayonda shakllanib, o'sib boraveradi.

### ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Abroxonova K.A., Alibayev D.Sh. "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash" yiliga bag'ishlangan "Mintaqada innovatsion faoliyatni rivojlantirish: muammolar va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – T.: 2021-yil
2. Tolipov.U,Q, Sharipov SH.S "O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish pedagogik asoslar" "Fan" nashri 2012-yil.
3. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1-2 kitob.
4. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)